# DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL POSSIBILITIES ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL SUPPORT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL STUDENTS.

**Azamova Umida Mirnodir qizi**
Kokand State Pedagogical Institute, Theory of Education and Upbringing Preschool education 2nd stage
Master Supervisor: Associate Professor **N N Shomutodova**

Annotation: This article is about the development of intellectual abilities of preschoolers on the basis of pedagogical support.

Keywords: Virtues, responsible task, intellectual potential, innovative ideas, educational pedagogy

# MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYA TARBIYALANUVCHILARINI PEDAGOGIK QO'LLAB QUVVATLASH ASOSIDA INTELEKTUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.

***Azamova Umida Mirnodir qizi Qo'qon davlat pedagogika instituti, ta'lim va tarbiya nazaryasi maktabgacha ta'lim 2- bosqich***
***magistranti Ilmiy rahbar: dotsent N.N.Shomutodova***

***Annatatsiya:*** *Mazkur maqola, Maktabgacha ta'lim tarbiya tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo'llab quvvatlash asosida intelektual imkoniyatlarini rivojlantirish to'g'risida bo'lib bu haqida umumiy tushunchalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:****Ezgu fazilatlarni,mas'uliyatli vazifa,intelektual imkoniyatlar, innovatik g'oyalar,ta'lim pedagogikasi*

**Kirish:**Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi – bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharafli va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.
O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog'lagan, o'sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo'lib voyaga yetishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan.
Tabiiyki hozirgi ta'lim va Maktabgacha ta'lim tarbiya tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo'llab quvvatlash asosida intelektual imkoniyatlarini rivojlantirish islohotlari sharoitida ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar: «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro e'tibori avvlambor farzandlarimizning unib, o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishga bog'liqdir.»1 – deb alohida ta'kidlaganlar.
**Asosiy qism:**Maktabgacha ta'lim tarbiya tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo'llab quvvatlash asosida intelektual imkoniyatlarini rivojlantirish va Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi fanining tashkil topishi va rivojlanishi. Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlash ota-onalarga yordam beradi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e'tibor

berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunining 11- moddasida: «Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-yetti yoshgacha oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi» deyilgan.Maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lshni, fikrlashi, shuningdek, MTTlarda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

**Xulosa:**Bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

**Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1.Fayzullayeva M., Z. Raximova, M. Rustamova «Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish. ( Tayyorlov guruhi uchun mashg‘ulotlar ishlanmasi), –T., 2010.
2. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to‘g‘ri talaffuzga o‘rgatish». –T.: «O‘qituvchi», 1990.
3. Shodiyeva Q. O‘rta guruh bolalari nutqini o‘stirish. –T.: «O‘qituvchi», 1993.
4. G‘afforova T. va boshqalar «1-sinf savod darslari». –T.: «O‘qituvchi», 1996.